



TILSHUNOSLIKDA GRADUONIMIYA HODISASINING O`RGANILISHI

Kasimova Muqaddas Bekpo`latovna

Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7527992>

Annotatsiya: Maqolada graduonimiyaning qadimgi rivojlanish bosqichlari yoritilishi bilan birga XV asrda yashab ijod qilgan buyuk mutaffakkir Mir Alisher Navoiy hazratlarining “Muhokamat ul- lug`atayn” asarida aniq dalillar asosida graduonimiya masalasining tahlili haqidagi ilmiy ma`lumotlar berilgan. Graduonimiya hodisasining ingliz va rus tilshunosligida o`rganilishi, darajalanishni aniqlashda belgi (hodisa) miqdorining ma`lum bir yo`nalishda ozayishi yoki ko`payishi bosh mezon hisoblanishi, darajalanishning falsafiy asoslari va undagi shakllanish ko`lami, bu hodisa tillarning tiplari orasidagi bog`lanishlarda va umuman tilning barcha sathlari, ularning birliklari, umumiy va xususiy tizimlarda o`z ifodasini topishi haqida tilshunos olimlarning ilmiy qarashlari yoritilgan.

Kalit so`zlar: so`z ma`nolari o`rtasidagi darajalanishning falsafiy asoslari, so`z ma`nolari darajasining kuchayishi yoki kamayishi, graduonimiya hodisasi ingliz va rus tilshunosligida, belgi (hodisa) miqdorining yo`nalishi, darajalanishda ozayish yoki ko`payish, darajalanishning til tiplari orasidagi bog`lanishlari, tilning barcha sathlari, ularning birliklari, umumiy va xususiy tizimlari.

Tilshunoslikka sistem tilshunoslik tamoyillari tatbiq qilina boshlanishi bilan sistem leksikologiya shakllanib taraqqiy eta boshladi. Bu esa o`z navbatida leksik-semantik paradigmalarining yangi qirralari ochilishiga zamin yaratdi. Natijada, leksik-semantik guruhlar tarkibida graduonimiya, giponimiya, xolonimiya, taksonomiya kabi birliklar paydo bo`ldi. “Graduonimiya (gr. gradatio – “ko`tarilish”, “o`shish”, onymo – “nom”)”¹. Tilshunoslikda so`z ma`nolari darajasining ma`nosi, bo`yog`i, miqdori, hajmi jihatidan kuchayishi yoki kamayishi jarayonlarini tadqiq qiluvchi soha. Graduonimiya hodisasini aniqlashda belgi (hodisa) miqdorining ma`lum bir yo`nalishda ozayishi yoki ko`payishi bosh mezon hisoblanadi. Darajalanishning falsafiy asoslari va undagi shakllanish ko`lami shuni ko`rsatadiki, bu hodisa tillarning tiplari orasidagi² bog`lanishlarda va umuman tilning barcha sathlari, ularning birliklari, umumiy va xususiy tizimlarda o`z ifodasini topadi.³

¹ Mengliyev B. Hozirgi o`zbek tili. Darslik. Toshkent. Tafakkur bo`stoni. 2018. – B. 169

² Мирзақулов Т. Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси масалалари: Филол. фан. док дисс. автореф – Тошкент, 1994. – Б.42.

³ Жумабаева Ж.Ш. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик градуонимия: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2016. – Б. 9.





Graduonimiya asrlar davomida tadqiqotchilarni o`ziga jalb qilib kelgan. Shuni alohida ta`kidlash lozimki, leksik-semantik munosabatlar tarkibiga kiruvchi graduonimiya hodisasi dastlab sinonimiya hodisasi tarkibida o`rganilgan. Yunon faylasuf olimi Platonning «Kratil» asarida mazkur masalaga Suqrot bilan munozara tarzida javob izlanganligini ko`rish mumkin. Qadimgi Yunon tilshunosligining falsafiy davrida faylasuflar notiqlikka alohida urg`u berdilar. Binobarin, notiqlikka bevosita xizmat qiladigan stilistika va sinonimiyaga oid ishlarni miloddan avvalgi VI-V asrdayoq yunon tilshunosligida juda ko`plab uchratish mumkin edi. Xususan, miloddan avvalgi V asrda sinonimlar nazariyasini ishlab chiqqan Prodik omonim va sinonimlarni yaxshi bilish notiq va shoirlar uchun muhim ekanini qayd etgan edi⁴. Ushbu ma`lumotlar tadqiqotimizning qadimgi rivojlanish bosqichlari haqida ma`lumot beradi. Graduonimiya masalalari haqida XV asrda yashab ijod qilgan buyuk mutaffakir Mir Alisher Navoiy hazratlari o`zining “Muhokamat ul- lug`atayn” asarida aniq dalillar keltirib o`tganligini alohida qayd qilishimiz lozim. “Buyuk mutafakir o`zbek tilining ifoda imkoniyatlari kengligini dalillash jarayonida yig`lamoq fe`lining va boshqa so`zlarning sinonimlarini tahlil qiladi, fors-tojik tili so`zlari bilan qiyoslaydi. Bu holat darajalanish hodisasi ijod ahllarining ham e`tiborini tortganligidan dalolat beradi. Navoiy yig`i holatini ifodalovchi leksik birliklarning quyidagi darajalanish qatorini ajratadi:

ingramak~singramak~yig`lamsinmak~siqtamak~yig`lamak~o`kurmak~hoy-hoy yig`lamoq.

Navoiy bu so`zlarning barchasini bir umumiy ma`no – iztirob chekib, uni ifodalash ma`nosi atrofiga birlashishini va ingramak (ya`ni iztirob chekib juda past ovoz chiqarib, ich-ichidan yig`lamoq)dan hoy-hoy yig`lamoq (baland ovoz bilan oshkora va uzoq yig`lamoq) so`ziga tomon belgi darajasining o`sib borishini ta`kidlaydi⁵. Tadqiqotchi Q.Eshboyev “Alisher Navoiy so`zlarning ma`noviy darajalanishi orqali poetik tasvir samaradorligini ta`minlashga erishgan degan xulosaga keladi⁶. Buni mavjud misollar bilan dalillaydi:

1. “Charx zulmidaki, bo`g`zimni qirib yig`larmen,
G`urur charx kibi inchkirib yig`larmen.

Mazmuni: Charx zulmi ostida bo`g`zimni qirib yig`layman, ingrayotgan charxga o`xshab g`ing`illab yig`layman.

2. Istasam davr ahlidin ishqingni pinhon aylamak,

⁴ Усмонов С.. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972. – Б. 22

⁵ Орифжонова Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – Б. 16.

⁶ Эшбоев Қ. Сўзлараро даражаланиш ўқув луғатини тузиш асослари: Филол. фан. фалс.док. ... дисс. автореф. – Андижон, 2022. – Б. 13.





Kechalar gah ingramakdur odatim, gah singramak.

Mazmuni: Odamlardan ishqimni yashirishni istayman, shuning uchun odatim goh ingramoq, goh singramoq.”⁷.

Keltirilgan misollardan ma’lum bo’ladiki, Alisher Navoiy tizimli ravishda soʻzlarning ma’noviy darajalanish bilan bogʻliq semantik xususiyatini teran anglagan hamda badiiy tasvirning oʻziga xos usuldagi oʻz ifodasiga erishgan. Tilshunoslikda gradatsiya (klimaks), graduallik terminlarini graduonimiya bilan yondosh qoʻllash holatlari mavjudligini ushbu terminlarga berilgan ta’riflar va misollardan anglash mumkin. Klimaks stilistik vosita sifatida nutqda qoʻllanadi, graduonimiya (darajalanish) esa undan farq qilgan holda tildagi sinonimiya, antonimiya, omonimiya, meronimiya, taksonomiya, giponimiya kabi leksik-semantik munosabatlarni ifodalovchi til hodisasi. Tadqiqotchi J.Jumabayeva ham gradatsiya tushunchasini graduonimiyadan farqlagan holda stilistik gradatsiya atamasining bitta matn ichida ishlatiladigan ibora, metafora, metonimik koʻchma ma’nolarning kuchayib/pasayib borishini ifodalashini, graduonimiya esa, umuman, soʻzlarning denotativ darajalanish asosidagi munosabatini oʻzida aks ettiruvchi lisoniy hodisa ekanligini⁸ koʻrsatib oʻtadi. (1.1 jadval)

(1.1 jadval)

Graduonimiya	Gradatsiya	Graduallik
Soʻz ma’nolari darajasining ma’nosi, boʻyogʻi, miqdori, hajmi jihatidan kuchayishi yoki kamayishi jarayonlarini tadqiq qiluvchi soha	Klimaks (gradatsiya)ni stilistik vosita sifatida matndagi gaplarning (yoki gapdagi bir turga mansub uyushiq boʻlaklarning) ma’no va mazmuni, ahamiyati, matnning umumiy mazmunidagi ta’sirchanligi	Graduallik hodisasida graduonimik qator tushunchasi tayanch soʻz sifatida olingan va graduonimik qator a’zolari kamida uchta boʻlishi, qator a’zolari darajaning ortib borishi tartibida, miqdorning, sifatning oshishi, boʻyoqdorlik va

⁷Орифжонова Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – Б. 16.

⁸Жумабаева Ж.Ш. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик градуонимия: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2016. – Б. 81.





	borasidagi gradual o`shish ⁹	ekspressivlikning kuchayishi tartibda joylashtiriladi ¹⁰
--	---	---

Ushbu jadvaldan shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki, qayd qilingan uchta tushuncha alohida belgi-xususiyatlarga egaligi jihatidan o'zaro farqlilik va alohidalik kasb etadi, keltirilgan tavsiflarda ularning alohida hodisalar bilan bog'liqligi ham anglashiladi. Tilshunos olim J.Jumaboyeva ingliz tilshunosligida graduonimiya (darajalanish) hodisasining ilmiy tadqiqi haqida fikr yuritib "Ingliz olimlarining semantika sohasida qilgan ishlari bilan tanishib chiqish jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki, graduonimiya hodisasiga yaqin bo'lgan hodisalar, tushunchalar ko'pgina munozaralarga sabab bo'lgan"¹¹ligini ta'kidlaydi. Ushbu fikrni D.A.Kruznig "Lexical semantics" kitobining "Rank, degree and grade" deb nomlangan bo'limida¹² shunga o'xshash hodisa ko'rsatib o'tilganligini ta'kidlash bilan asoslaydi. Tadqiqotchi M.Otaboyeva o'z tadqiqotida graduonimiya hodisasining ingliz va nemis tilshunosligida o'rganilishi masalalariga to'xtalib quyidagicha fikr bildiradi: "In Seok Yang "On antonymy in English" risolasida asosan ingliz tilidagi sifat so'z turkumiga kiruvchi o'zaro antonim bo'lgan ba'zi so'zlarni neytrallashuvchi antonimlar deb atab, ular orasiga normal so'zini qo'yish mumkin degan fikrni bildiradi va ana shu tariqa antonimlar asosida graduonimik qatorlar hosil qiladi. Nemis tilshunosi M.Biervish "The Semantics of Gradation" nomli tadqiqotida nemis va ingliz tillari misolida sifatlarda gradatsiya hodisasini atroflicha o'rgangan"¹³ligini bayon etadi. Rus tilshunosligida ham graduonimiya terminiga o'xshash bir qancha atama bor ular ham mazkur tushuncha bilan bir xil talqin qilinishini kuzatish mumkin. S.M.Kolesnikova, T.S.Gennadyevna, S.A.Tixomirov, Z.Tarlanov, I.V.Nazarova, G.V.Kireyeva, S.S.Kadiseva¹⁴ kabi tilshunos olimlarning ishlarida alohida tadqiq qilingan gradualnost,

⁹ Гальперин И.Р. Stylistics. – М.: Высшая школа, 1971. – С. 219-221.

¹⁰ Жумабаева Ж.Ш. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик градуонимия: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2016. – Б. 90.

¹¹ Жумабаева Ж.Ш. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик градуонимия: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2016. – Б. 25.

¹² Cruse D.A. Lexical- Semantics.-Camdridge University Press, 1986. 192-196 b

¹³ Отабоева М.Р. Ўзбек ва инглиз тилларида феъллар градуонимияси: Филол. фан. фалс.докт. ... дисс. – Андижон, 2022. – Б. 15.

¹⁴ Геннадьевна Т.С. Английские фразеологические единицы с градуальной семантикой: лингвокультурологический аспект: Дисс. ... канд. филол. наук. – Донецк, 2018. – 197 с. Колесникова С.М. Категория радикальности в современном русском языке: Дисс. ... докт. филол. наук. – М., 1999. – 425 с.





graduovaniye, graduator, gradosema, gradatsion shkala terminlari haqida ma'lumotlar berilgan. Mazkur terminlar ham bevosita nutqqa oid darajalanish hodisalarini ifodalab, ularda boshqa lingvistik vositalarsiz muayyan belgining o'sib yoki kamayib borishiga ko'ra o'zaro zidlanishini aks ettiruvchi leksik graduonimiya paradigmasidan farqli jihatlarni ko'rish mumkin. O'zbek va ingliz tillarida fe'llar graduonimiyasi mavzusida tadqiqot olib borgan tadqiqotchi M. Otaboyeva darajalanish hodisasining rus tilshunosligida o'rganilishiga e'tibor berib o'z fikrlarini quyidagicha bayon qiladi: "Rus tilshunosi I.A.Isayeva fe'llardagi gradual semantikani fe'llarning leksik-semantik va so'z shakllantirish darajasida namoyon bo'lishi misolida tadqiq etdi. Muallifning ta'kidlashicha, fe'llarning gradual semantikasi qo'shimcha vosita - graduatorlardan (affikslar, qo'shimcha gradatsion ma'nolar) foydalanish orqali yuzaga chiqadi va rus tilidagi pre- prefiksini qo'shish bilan fe'ldagi ma'noning kuchayishi mumkinligiga vzoyti - prevzoyti so'zini misol qilib keltiradi. Bu biz o'rganayotgan graduonimiyadan ko'ra ko'proq gradatsiyaga yaqinroq va nutqdagi

darajalanishni o'zida aks ettiradi. G.V.Kireyeva o'z tadqiqotida emotsionallikni ifodalovchi undov so'zlarni graduallik kategoriyasi sifatida o'rgangan bo'lsa, I.V.Nazarova ingliz tilida graduallik (gradualnost) kategoriyasini ravishlarda namoyon bo'lishi tadqiqi bilan shug'ullandi. Muallif ravish-graduatorlar (rus tilshunoslari graduallik darajasini anglatuvchi so'zlarni graduator deb nomlaganlar) ifodalagan ma'nolarda belgining paydo bo'lishiga ko'ra, o'ta yuqori darajadagi ravishlar (awfully, greatly, very, much); yetarlicha yuqori darajadagi ravishlar (considerably, pretty, rather); yetarli darajada bo'lmagan ravishlar (inconsiderably, insufficiently) ga ajratadi va bu orqali darajalanishning morfologik sathda namoyish bo'lishini ochib beradi."¹⁵

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. Darslik. Toshkent. Tafakkur bo'stoni. 2018.
2. Мирзақулов Т. Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси масалалари: Филол. фан. док дисс. автореф – Тошкент, 1994.
3. Жумабаева Ж.Ш. Ўзбек ва инглиз тилларида лексик градуонимия: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2016.

¹⁵ Отабоева М.Р. Ўзбек ва инглиз тилларида фе'ллар градуонимияси: Филол. фан. фалс. докт. ... дисс. Андижон, 2022. – Б. 16.





4. Усмонов С.. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972.
5. Орифжонова Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1996.
6. Эшбоев Қ. Сўзлараро даражаланиш ўқув луғатини тузиш асослари: Филол. фан. фалс.док. ... дисс. автореф. – Андижон, 2022.
7. Гальперин И.Р. Stylistics. – М.: Высшая школа, 1971.
8. Cruse D.A. Lexical- Semantics.-Camdrige University Press, 1986.
9. Отабоева М.Р. Ўзбек ва инглиз тилларида феъллар градуонимияси: Филол. фан. фалс.докт. ... дисс. – Андижон, 2022. – Б. 15.
10. Геннадьевна Т.С. Английские фразеологические единицы с градуальной семантикой: лингвокультурологический аспект: Дисс. ... канд. филол. наук. – Донецк, 2018.
11. Колесникова С.М. Категория радикальности в современном русском языке: Дисс. ... докт. филол. наук. – М., 1999.

